



MASHQ DAFTARI 2

4-sinf o'quvchilarining o'qish
savodxonligini baholash bo'yicha
o'tkaziladigan PIRLS xalqaro
tadqiqotiga tayyorgarlik ko'rish
uchun

Hudud (Qoraqalpog'iston Respublikasi/
Viloyat/Toshkent shahar)

Tuman (shahar) _____
_____–sonli maktabning _____–sinf
o'quvchisi _____



Yo'riqnoma

Hurmatli o'quvchi! Siz ushbu mashq daftarini bajarish uchun unda berilgan hikoya yoki maqolalarni o'qib chiqishingiz va o'qiganlaringiz yuzasidan savollarga javob berishingiz lozim bo'ladi. Ba'zi savollar osonroq va ba'zilari esa murakkabroq bo'lib tuyulishi mumkin. Siz barcha savollarga javob berishga harakat qiling.

Siz turli xil savollarga javob berishingiz kerak bo'ladi. Ayrim savollarga 4 ta variantdan iborat bo'lgan harflar bilan belgilanadigan javoblar keltiriladi. Siz o'zingizning fikringizga ko'ra to'g'ri javobga tegishli bo'lgan harfni belgilang.

1 – namunada shunday savol berilgan va namuna tarzda javobni qanday belgilash ko'rsatilgan.

1-namuna

1. Bir haftada necha kun bor?

☐ A 2 kun

☐ B 4 kun

☒ C 7 kun

☐ D 10 kun

Javobda "C" harfi belgilangan, chunki bir haftada 7 kun bor. Agarda sizning javobingiz to'g'riligiga ishonchingiz komil bo'lmasa, sizning nazaringizda eng to'g'ridek ko'ringan javobni tanlab, keyingi topshiriqqa o'tishingiz mumkin.

Agar siz tanlagan javobingizni o'zgartirmoqchi bo'lsangiz, uning ustiga chizing va to'g'ri deb hisoblagan boshqa javobingizni belgilang hamda keyingi savolga o'ting. Buni qanday bajarishni 2 – namunada ko'rishingiz mumkin.

2-namuna

2. Bir haftada necha kun bor?

☒ A 2 kun

☐ B 4 kun

☒ C 7 kun

☐ D 10 kun

Ayrim vazifalarni bajarishda o'z javobingizni savolning tagidagi maxsus ajratilgan joyga yozishingiz kerak bo'ladi. 3 – namunada shunday savol keltirilgan.

3-namuna

3. Hikoyada aytilayotgan voqea yilning qaysi faslida bo'lib o'tgan?



3-namunada qalam va uning yonida 1 raqami tasvirlangan. Ushbu belgi mazkur savol uchun siz 1 ball olishingiz mumkinligini bildiradi.

4-namunada qalam va uning yonida 3 raqami tasvirlangan. Demak, ushbu savolning to'g'ri javobi uchun 3 ball olishingiz mumkin.

4-namuna

4. Aynan nima hikoyaning oxirini bir vaqtning o'zida ham qayg'uli ham zavqli qilmoqda? O'qiganlaringiz bo'yicha olgan ma'lumotlaringizdan foydalanib, o'z fikringizni tushuntirib bering.



Daftar ikki qismdan iborat. Har bir vazifani bajarishga 40 daqiqadan vaqt ajratiladi. Har bir vazifaning o'rtasida kichik tanaffus beriladi.

Hamma savollarga imkon qadar yaxshiroq javob berishga harakat qiling. Agar siz birorta savolga javob bera olmasangiz, keyingisiga o'tishingiz mumkin.



To'xtang

O'qituvchining ruxsatisiz
navbatdagi sahifani ochmang.

Dovyurak Sharlotta

*Anu Stohner tomonidan yozilgan
Henrike Vilson tomonidan tasvirlangan*

Sharlotta boshidanoq boshqa barcha qo'ylardan farq qilar edi. Boshqa barcha qo'zichoqlar onalarini oldida uyalib turishganida, Sharlotta sarguzashtlarga boy harakatlar bilan sakrab yurar edi.

Sharlotta boshqa barcha qo'ylar bilan fermadan uzoqda joylashgan tog' yonbag'rida yashar edi. Ularga qarash uchun cho'pon va uning Jek ismli qari iti bor edi. Jek Sharlottani nazorat qilishga urindi, ammo Sharlotta undan qo'rqmadi.



1. Jek kim edi?



2. Jek Sharlottani nima qilishga urindi?



Bir safar Sharlotta daryo qirg'og'idan sakrab o'tib, tez oqadigan oqimda suzish uchun bordi.

- "Tut, tut,"- dedi kattaroq qo'ylar boshlarini chayqab.

Ular Sharlottani qishloq bo'ylab yashirincha kezib yurganini bilsalar nima der edilar?



Boshqa barcha qo'ylar uxlab yotganida, u o'zining maxsus joyiga sirpanib chiqib, oyga tikilib turardi. Hatto Jek ham buni payqamas edi. Chunki uning quloqlari yaxshi eshitmas edi.

3. Sharlottaning boshqa qo'ylardan ajralib turishiga **ikkita** misol keltiring.



1.



2.

4. Oldingi sahifadagi rasmda Sharlotta qayerda turgan edi?

- ☐ (A) o'zining maxsus joyida
- ☐ (B) suv oqimi atrofida
- ☐ (C) fermada
- ☐ (D) o'zining yashirin joyida

5. Nega Jek Sharlottaning tunda chiqib ketganini payqamadi?



Bir kun daxshatli voqea ro'y berdi. Cho'pon yiqilib tushdi va oyog'ini sindirib oldi. Jek vovullab uning atrofini aylanib chiqdi, ammo bu hech qanday yordam bermadi. Cho'pon nima qilishini bilmay, maysalar ichida yotardi.

“Oh azizim, oh azizim,”- dedi kattaroq qo'ylar. “Kimdir vodiydagi fermerning uyiga borib, yordam so'rashi kerak.”

“Jek borishi kerak. Yo'lni biladigan faqat u”.

“Ammo u yer juda uzoq. Shu kunlarda u podani zo'rg'a eplayapti”.

“Ha, bu to'g'ri”,- deyishdi boshqalar boshlarini chayqagancha umidzillikka tushib.



6. Nima uchun choʻpon maysalar ichida yotar edi?

- Ⓐ U fermernikiga borishni xohlamadi
- Ⓑ U oyogʻini sindirib olgan edi.
- Ⓒ U uxlashni xohlayotgan edi.
- Ⓓ U oyga tikilib turar edi.

7. Hayvonlar yordam soʻrash uchun qayerga borishlari kerak edi?



8. Jek yordam soʻrashga borish uchun ulardan eng yaxshisi ekanligiga **bitta** sabab keltiring.



Jek yordam soʻrashga borish uchun ulardan eng yaxshisi emasligiga **bitta** sabab keltiring.



Keyin Sharlotta shunday dedi: - “Buni men qilaman. Men boraman”.

“Sharlotta?” - deb ming‘irladi kekxa qo‘ylar.

“Savolga o‘rin yo‘q. Birorta qo‘y vodiya yolg‘iz bormagan”.

Kekxa qo‘ylar tashvishda edilar. Ammo Sharlotta ularni eshita olmadi. U vodiya to‘g‘ri yo‘lni topish uchun allaqachon ketib bo‘lgan edi.

U dalalar bo‘ylab, sy oralab va tog‘ ustidan sakrab borar edi.



9. Sharlotta ketganida kekxa qo‘ylar o‘zini anday his qilishdi?

- Ⓐ xursand
- Ⓑ hotirjam
- Ⓒ tashvish
- Ⓓ darg‘azab

10. Nima uchun Sharlotta kekxa qo‘ylarni eshita olmadi?





Sharlotta gavjum mashina yo‘liga yetib borganida, tuning yarmi edi. U joyida turdi va tirbandlikni kuzatdi.

Yuk mashinasi haydovchisi Sharlottani ko‘rib, yo‘lda to‘xtadi.

“Vodiya borasizmi?”-deb so‘radi u. Sharlotta bosh irg‘adi.

11. Sharlotta gavjum yo'lga qachon yetib bordi?




12. Sharlotta mashina yo'lga yetib borganidan keyin nima qildi?

- Ⓐ U fermerning uyi tomon yurdi.
- Ⓑ U joyida turdi va tirbandlikni kuzatdi.
- Ⓒ U mashina yo'lini kesib o'tmoqchi bo'ldi.
- Ⓓ U yuk mashinasini to'xtatish uchun qo'l silkitdi.

Yuk mashinasida tez yurish shunchalik yoqimli ediki, Sharlotta fermerning uyiga yetib borganidan afsuslanardi.

Fermer uxlab yotganida, Sharlotta burni bilan uning oynasini taqillatdi.

“Bu Sharlotta,”-dedi fermer, -“va u yolg‘iz. Qandaydir ko‘ngilsizlik bo‘lsa kerak”.



13. Nima uchun Sharlotta fermerning uyiga yetib borganidan afsuslanar edi?

- Ⓐ U boshqa qoʻylarni sogʻingan edi.
- Ⓑ U fermerni uygʻotishi kerak edi.
- Ⓒ Unga yuk mashinasida sayr qilish yoqqan edi.
- Ⓓ U choʻpon haqida tashvishda edi.

14. Fermer qandaydir koʻngilsizlik boʻlganini qanday bildi?

- Ⓐ Sharlotta yolgʻiz edi.
- Ⓑ Sharlotta unga aytdi.
- Ⓒ Sharlotta yuk mashinasida keldi.
- Ⓓ Sharlotta afsuslangan koʻrinar edi.

Sharlotta va fermer boshqa qo'ylarni topish uchun traktorda yo'l oldilar. Ular yetib kelishganida, bechora cho'pon hali ham maysalar ichida yotgan edi. Fermer uni darhol kasalxonaga olib bordi.

Cho'pon qo'ylar yoniga qaytib borguncha olti hafta davomida oyog'ini gipsda ushlab turdi. Qaytib kelgach, u Sharlottaga o'zgacha tabassum hadya etdi. Shu vaqtdan boshlab Sharlotta o'zi xohlagandek erkin sayr qilishi mumkin edi.



15. Fermer va Sharlotta birgalikda nima qildilar?



16. Cho'pon qancha vaqt davomida oyog'ini gipsda ushlab turdi?



17. Nima uchun cho'pon Sharlottaga o'zgacha tabassum hadya etdi?



18. Hikoyadagi voqealarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtiring. Birinchisi siz uchun bajarilgan.



_____ Cho'pon kasalxonaga bordi.

_____ Sharlotta vodiya bordi.

__1__ Cho'pon yordamga muhtoj edi.

_____ Fermer cho'ponni topdi.



To'xtang!

O'qituvchining ruxsatisiz
navbatdagi sahifani ochmang!

Antarktida: Muzlik qit'asi


Antarktida bilan tanishish

Antarktida nima?

Antarktida qit'a bo'lib, sayyoramizning eng janubida joylashgan. Agar siz Antarktidani globusdan topishga harakat qilsangiz, uni eng quyida joylashganligini ko'rishingiz mumkin.

Antarktida yer sathining o'ndan bir qismini egallaydi va u muz bilan qoplangan bo'lib, uning qalinligi 1500 metr yoki undan ortiq bo'lishi mumkin. Janubiy qutb Antarktidaning markazida joylashgan.

Antarktida eng sovuq, eng quruq, eng baland va eng ko'p shamol esadigan qit'a hisoblanadi. U yerda yil davomida juda kam odamlar yashaydi. Olimlar u yerda qisqa vaqt davomida bo'lishadi va maxsus qurilgan tadqiqot stansiyalarida yashaydilar.



Antarktida xaritasi

Antarktidada yoz fasli oktyabr oyidan mart oyigacha davom etadi. Bu vaqt davomida u yerda doim yorug' bo'ladi. Qishda esa buning aksi, aprel oyidan sentyabrgacha Antarktidani olti oy davomida doimiy zulmat qoplaydi.



ANTARKTIDADA OB-HAVO

Antarktida hattoki yozda ham siz tasavvur qilganingizdan ko'ra ancha sovuqroq! Janubiy qutb Antarktidaning eng sovuq qismidir. Yanvar oyida, qishning o'rtasida, o'rtacha harorat, selsiy shkalasi bo'yicha minus 28 darajani tashkil etadi (-28°C). Minus harorati 0° dan past bo'lgan suvning muzlash haroratini anglatadi.

Qish paytida apreldan sentyabrgacha janubiy qutbda o'rtacha harorat -89°C sovuq bo'lishi mumkin. Bunday sovuq ob-havoda havoga krujkadan sepilgan qaynatilgan suv muzga tegmasdan muzlaydi. Ba'zida olimlar namunalarning muzlab qolmasligi uchun ularni iliq saqlash uchun muzlatkichlarda saqlashlariga to'g'ri keladi!

ANTARKTIDADAGI PINGVINLAR



Antarktidada pingvinlar boshqa qushlarga nisbatan ko'proq. Ular uchishni bilmaydi, lekin suzishda o'zlarining qisqa qanotlaridan foydalanadilar. Ular ajoyib suzuvchilardir, lekin quruqlikda qisqa-qisqa sakrab yurishadi.

Pingvinlar bir-birining ustini qoplab turadigan ko'plab patlarga ega. Juda issiq va qalin yog' qatlami bilan birga patlar qushlarni sovuq havodan, shamol va suvdan himoya qiladi. Qo'shimcha issiqlik uchun pingvinlar guruhlariga birlashadilar.

ANTARKTIDADAN MAKTUB

Sara Viler Antarktidada faoliyat olib boruvchi olimlardan biri. Uning jiyani Daniyelga yozgan maktubidan uning Antarktidadagi boshdan kechirganlar haqida bilib olishingiz mumkin.



Antarktida, 9 dekabr, juma

Qadrdonim Daniyel!

Bu senga Antarktidadan yozishga va'da bergan maktubim va sur'atim. Nihoyat, ko'plab taniqli tadqiqotchilar bilan bir qatorda, meni ham bu yerda ekanligimdan xursandligimni, bir tasavvur qilib ko'rgin-a. Bu yer men o'rganib qolgan hayotdan tubdan farq qiladi.

Bu yerda yangi oziq-ovqat mahsulotlari yo'q, do'konlar yo'q, shuning uchun biz konservalangan yoki muzlatilgan mahsulotlarni iste'mol qilishga majbur bo'lamiz (ularni muzlatgichda saqlashdan ko'ra - shunchaki tashqarida qoldirish mumkin). Biz kichkina gaz plitalarida ovqat pishiramiz, pishirish uydagidan ko'ra ko'proq vaqt talab etadi. Kecha men desertga ta'mi kartonni eslatuvchi quritilgan qulupnaydan keyin pomidor sousi va konservalangan sabzavotlar bilan lag'mon tayyorladim.

Men yangi olma va apelsinlarni sog'inyapman - afsus sen ularni menga jo'nata olmaysan!

Sog'inch bilan, Sara.

Savollar: Antarktida: Muzlik qit'asi

1. Antarktidani globusdan qanday topish mumkin?



2. Antarktida - yerdagi eng sovuq joy. U yana nimasi bilan ahamiyatli?

- ☐ A eng quruq va eng bulutli joy
- ☐ B eng nam va eng shamolli joy
- ☐ C eng ko'p shamol esadigan va eng quruq joy
- ☐ D eng bulutli va eng yuqori joy

3. Antarktidaning eng sovuq qismi qaysi?



1
0
8
9

1
0
8
9

4. Maqolada Antarktida haqida nima deyilgani haqida o'ylab ko'ring. Antarktidaga ko'pchilik odamlar aprel-sentyabr oylari orasida **bormasliklaring ikkita** sababini keltiring.



1.



2.

5. Nima uchun maqolada “krujkadan sepilgan qaynatilgan suv muzga tegmasdan muzlaydi”, deyilgan?

- ☐ (A) Antarktidada qaynoq suv qanaqaligini aytish uchun
- ☐ (B) Antarktidada nima ichishlarini ko'rsatish maqsadida
- ☐ (C) Antarktidada olimlarning ishlari haqida aytish uchun
- ☐ (D) Antarktida qanday sovuq ekanligini ko'rsatish uchun

6. Maqolaga ko'ra pingvinlar qanotlaridan nima maqsadda foydalanadilar?

- ☐ (A) uchish
- ☐ (B) suzish
- ☐ (C) polaponlarini isitish
- ☐ (D) tik yurish

2
1
0
8
9

2
1
0
8
9

7. Antarktidada pingvinlar o'zlarini qanday issiq saqlashlariga **uchta** misol keltiring.



1.



2.



3.

8. Saraning maktubidan Antarktidadagi oziq-ovqat mahsulotlari haqida nimalarni bilib oldingiz? **Ikkita** misol keltiring.



1.



2.

9. Antarktidaga borish yoki bormaslik haqida bir o'ylab ko'ring. "*Antarktida bilan tanishish*", va "*Antarktidadan maktub*" bo'limlarida o'qiganlaringizdan foydalangan holda nima uchun borishni yoki bormasligingizni izohlang.



.

1
0
8
9

1
0
8
9

1
0
8
9

1
0
8
9

1
0
8
9

2
1
0
8
9

10. Maqolaning qaysi qismida Antarktidadagi muz qalinligi haqida aytilgan?

- (A) Antarktida nima?
- (B) Antarktidadagi ob-havo
- (C) Antarktidadagi pingvinlar
- (D) Antarktidadan maktub

11. Ushbu maqolada ikki xil uslubda Antarktida haqida ma'lumot tasvirlangan:

- *Antarktida bilan tanishish*
- *Antarktidadan maktub*

Ushbu ma'lumotlardan qaysi biri sizga qiziqarliroq deb hisoblaysiz va nima uchun?





To'xtang

Daftarda boshqa savollar mavjud emas.

2
1
0
8
9

1
0
8
9

“Dovyurak Sharlotta” matnini o‘qish sizga qanchalik yoqdi?

*Faqat **bitta** aylanani bo‘yang.*



Menga juda yoqdi----- ☐



Menga biroz yoqdi----- ☐



Menga unchalik yoqmadi ----- ☐



Menga umuman yoqmadi----- ☐

“Antarktida: Muzlik qit’asi” matnini o‘qish sizga qanchalik yoqdi?

*Faqat **bitta** aylanani bo‘yang.*



Menga juda yoqdi----- ☐



Menga biroz yoqdi----- ☐



Menga unchalik yoqmadi ----- ☐



Menga umuman yoqmadi----- ☐

